



**_____ - SONLI KREDIT ShARTNOMASI
(naqd pul shaklida)**

_____ sh. 20__y. «___» _____

Keyingi matnda «Bank» deb yuritiladigan «InfinBank» AJ nomidan _____ asosida harakat qiluvchi _____, bir tomondan, va

keyingi matnda «Qarz oluvchi» deb yuritiladigan _____ nomidan _____ asosida harakat qiluvchi _____, ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 744-748-moddalariga muvofiq quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

I. ShARTNOMA PREDMETI

1.1. Bank Qarz oluvchiga ushbu Shartnoma shartlarida naqd pul shaklida milliy valyutada biznesni rivojlantirish uchun _____ (_____) so‘m miqdorida bank kassasi orqali kredit berish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

1.2. Kredit mablag‘lari Qarz oluvchiga Bank kassasidan O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida (so‘mda) bir martalik naqd pul berish yo‘li bilan beriladi.

1.3. Kredit Qarz oluvchiga Bank tomonidan kredit mablag‘larining foydalanilishi keyinchalik nazorat qilinmaydigan tarzda taqdim etiladi. Kredit mablag‘laridan oqilona va qonun hujjatlarga muvofiq foydalanish uchun javobgarlik Qarz oluvchi zimmasiga yuklanadi.

II. KREDIT BERISH ShARTLARI

2.1. Kredit Qarz oluvchiga biznesni rivojlantirish uchun beriladi.

2.2. Qarz oluvchi ushbu Shartnomaning 5.1-bandida ko‘rsatilgan shartlarni bajargandan so‘ng va Bankka moliyalashtirishni rad etish huquqini beruvchi holatlar mavjud bo‘lmaganda, Bank kassasi orqali kredit mablag‘larini naqd pul shaklida olish huquqiga ega. Kredit berish shakli - kredit liniyasini ochmagan holda (bir martalik kredit ajratish).

2.3. Kreditdan foydalanish muddati – ushbu Shartnoma imzolangan sanadan boshlab _____ oy.

2.4. Asosiy qarzni to‘lash bo‘yicha imtiyozli davr – ushbu Shartnoma bo‘yicha kredit mablag‘lari ajratilgan kundan boshlab _____ oy.

2.5. Kredit bo‘yicha asosiy qarzni qaytarish quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi:

To‘lov navbati	To‘lov summasi	To‘lov sanasi

JAMI:

2.6. Kreditga foizlar kreditning amalda olingan (tanlangan) qismiga, birinchi olish (tanlash) sanasidan boshlab quyidagi qat'iy belgilangan foiz stavkalari bo'yicha:

- a) muddatli qarzdorlik bo'yicha yiliga ___%;
- b) muddati kechiktirilgan qarzdorlik bo'yicha kechiktirilgan qarzdorlikning yuzaga kelish sanasidan boshlab yiliga ___% miqdorida hisoblanadi.

2.7. Foizlar summasi Qarz oluvchining kredit bo'yicha amaldagi qarzdorligidan kelib chiqqan holda, kreditdan foydalanish davrining amalda o'tgan kunlar sonini yillik bazaviy davrga (365 kunga) bo'lish asosida hisob-kitob qilinadi. Kredit uchun foizlar to'lovi milliy valyutada, kredit ajratilgan sanadan boshlab, oyiga bir marta, oyning _____ kunida amalga oshiriladi. Foizlar bo'yicha oxirgi to'lov kredit qaytarilishining yakuniy sanasida amalga oshiriladi.

2.8. Foiz stavkasi turi (kerakligi belgilansin):

- o'zgarmas
- o'zgaruvchi foiz stavkasi

2.9. Kreditning asosiy summasi va foizlarini to'lash usuli (kerakligi belgilansin):

- differentsial
- annuitet

III. BANK O'Z ZIMMASIGA QUYIDAGI MAJBURIYATLARNI OLADI

3.1. Qarz oluvchiga ushbu Shartnomaning I, II Bo'limlarida belgilangan shartlarda milliy valyutada kredit berish. Bank Qarz oluvchi tomonidan moliyalashtirishni ochish uchun zarur bo'lgan barcha shartlar bajarilgan vaqtdan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Qarz oluvchiga ushbu shartnomada qayd etilgan miqdorda va shartlarda kredit berish majburiyatini oladi.

3.2. Kreditdan foydalanish va uning qaytarilishi, hisoblangan va to'langan foizlar va penya hisobini yuritish.

3.3. Bankning kredit berish majburiyati Qarz oluvchining ushbu Shartnomada moliyalashtirish ochilishiga qadar ijro etilishi nazarda tutilgan majburiyatlari bajarilganidan so'ng kuchga kiradi.

3.4. Bank Qarz oluvchiga ushbu shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu kredit bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarz oluvchiga kredit berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan yozma xabarnoma yuborishi shart.

3.5. Agar kreditni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so'ng kredit bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddatlari yoki shartnomada ko'zda tutilgan o'zgaruvchan foiz stavkasi o'zgarishi, kredit shartnomasining shartlari tomonlar o'rtasida qayta ko'rib chiqilishi (shu jumladan, kreditning restrukturizatsiya qilinishi), Qarz oluvchi tomonidan kredit qisman muddatidan oldin so'ndirilishi

munosabati bilan kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq kredit to'lovlarning miqdorlari o'zgarganda Bank kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirib, Qarz oluvchiga taqdim qiladi.

Bunda, kreditni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo'lgan kreditni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.

IV. QARZ OLUVCHI O'Z ZIMMASIGA QUYIDAGI MAJBURIYATLARNI OLADI

4.1. Kreditdan o'z biznesini rivojlantirish uchun foydalanish.

4.2. Ushbu Shartnomaning 5.1-bandida nazarda tutilgan ta'minotni qonun hujjatlarida va ushbu shartnomada belgilangan tartibda rasmiylashtirish va Bankka taqdim etish.

4.3. Kreditdan foydalanish jarayonida kredit berishning asosiy tamoyillari bo'lmish: muddatlilik, qaytaruvchanlik, to'lovlilik va ta'minlanganlikka rioya qilish.

4.4. Ushbu Shartnoma bo'yicha Bankka tegishli bo'lgan barcha summalarni kredit valyutasida to'lab borish.

4.5. Ushbu Shartnomaga muvofiq Bankka tegishli bo'lgan summalar Bank tomonidan olingan vaqtda to'langan hisoblanadi.

Agar Qarz oluvchi tomonidan amalga oshirilgan to'lov summasi Qarz oluvchiga ajratilgan kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun etarli bo'lmasa, Qarz oluvchining qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

- 1) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- 2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- 3) neustoyka (jarima, penya);
- 4) Bankning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

4.6. Kredit qaytarilishini (kredit bo'yicha asosiy qarz, kredit uchun foizlar, vositachilik haqi, penya va boshqa to'lovlarni) ushbu Shartnomaning II bo'limida ko'rsatilgan muddatlarda va shartlarda amalga oshirish.

4.7. Bankka kredit bo'yicha, shu jumladan to'lashga taqdim etilgan asosiy qarz, foizlar va penyalar bo'yicha qarzdorlik to'lovi uchun Qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari hamda, agar mavjud bo'lsa yoki kelgusida ochilsa, boshqa hisobvaraqlari hisobidan pul mablag'larini hisobdan chiqarishga qaytarib olinmaydigan va so'zsiz huquqini taqdim etish.

4.8. Ushbu shartnoma shartlariga muvofiq kredit bo'yicha muddatli majburiyatlarni rasmiylashtirish va taqdim etish.

4.9. Qarz oluvchi «InFinBank» AJ oldidagi barcha majburiyatlarni bajarib tugatmagunga qadar boshqa banklarda hisob raqamlarini ochmaslik, kreditlar olmaslik, o'ziga tegishli mol-mulkni garovga qo'yimaslik, kafilliklar bermaslik, ushbu shartnomaning 4.18-bandi talablarini buzmaslik, o'z zimmasiga

boshqa majburiyatlarni olmaslik hamda «InFinBank» AJ dastlabki yozma roziligisiz foydasini taqsimlamaslik majburiyatini oladi. Ushbu shart buzilgan taqdirda Qarz oluvchi Bankka har bir qoidabuzarlik turi uchun «InFinBank» AJ dan olinayotgan kredit bo'yicha qarzdorlik qoldig'ining 0,1% miqdorida jarima to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.10. Qarz oluvchining rejalashtirilayotgan tashkiliy-huquqiy yoki o'zgacha qayta tashkil etilishi haqida Bankka oldindan xabar berish.

4.11. Qarz oluvchining xo'jalik faoliyatiga va uning kreditni qaytarish qobiliyatiga qandaydir tarzda salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan xo'jalik va yuridik operatsiyalarning istalgan turlarini hamda Qarz oluvchining ustaviga zid bo'lgan operatsiyalarni amalga oshirmaslik.

4.12. Tomonlardan biri mustaqil yuridik shaxs sifatida o'z faoliyatini tugatgan yoki uning yuridik holatida o'zgartirishlar yuz bergan taqdirda, qayta tashkil etilgan (o'zgartirishlar kiritilgan) tomonning huquqiy vorisi zimmasiga ushbu Shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlarni bajarish yuklanadi. Qarz oluvchi tugatilishida u kredit va foizlar bo'yicha qarzdorlikni darhol to'lab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.13. Qarz oluvchining moliya-xo'jalik faoliyatini hamda ushbu Shartnomaning V Bo'limida nazarda tutilgan kredit bo'yicha taqdim etilgan garov ta'minotining holatini monitoring qilish maqsadida Bankka qonun hujjatlarida belgilangan shaklda buxgalteriya, statistika va har qanday boshqa hisobotlarni, ma'lumotlarni Bankning so'rovnomasi bo'yicha, shuningdek, ushbu shartnoma amalda bo'lgan davrda Bank tomonidan so'rovnoma asosida olinishi lozim topilgan boshqa tegishli hujjatlarni taqdim etish. Bundan tashqari, Bankning so'rovnomasi bo'yicha ishlab chiqarish, omborxonalar, ma'muriy binolarga, ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan uskunalar va garov ta'minoti saqlanayotgan joylarga, shuningdek, garov ta'minotiga, shu jumladan ko'zdan kechirish uchun uchinchi shaxslarning huzuriga to'siqsiz tashrif buyurish uchun imkoniyat yaratish.

4.14. Ixtiyoriy tugatish yoki bankrotlik tartibi boshlanishi kutilayotgan sanadan 2 (ikki) oy oldin bu haqda Bankni xabardor qilish.

4.15. Ixtiyoriy tugatish jarayoni boshlanishidan oldin ushbu shartnoma bo'yicha Bank oldidagi barcha qarzdorlikni to'lash.

4.16. Qarz oluvchi kredit bo'yicha qarzdorlikni to'liq qoplagunga qadar Bank tomonidan belgilangan muddatda qarzga va Qarz oluvchiga, Garovga qo'yuvchiga oid har qanday ma'lumot va hujjatlarni Bankka taqdim etish majburiyatini oladi. Ma'lumotlar va hujjatlar ushbu bandda belgilangan muddatda taqdim etilmagan taqdirda, Qarz oluvchi bankka kechiktirilgan har bir kun uchun ushbu shartnoma bo'yicha asosiy qarz qoldig'ining 0,01 foizi miqdorida penya to'laydi.

4.17. Qarz oluvchi quyidagilarga majbur:

a) kredit mablag'laridan moliyaviy, bank, ma'muriy me'yori va amaliyotga muvofiq foydalanish;

b) o'z faoliyatini amalga oshirish va ushbu shartnoma shartlariga rioya qilish uchun barcha zarur ruxsatnomalar va litsenziyalarni o'z vaqtida olish va muddatini uzaytirish.

4.18. Ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchi Bankning oldindan roziligisiz quyidagilarni bajarmasligi lozim:

- a) Shartlari bo'yicha Qarz oluvchining ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlariga nisbatan ustuvor talab qilish huquqiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan uchinchi shaxslar kreditlarini jalb qilish;
- b) bajarilishi ushbu shartnoma shartlariga zid kelishi yoki Qarz oluvchining ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga tahdid solishi mumkin bo'lgan har qanday shartnomalarni uchinchi shaxslar bilan tuzish;
- v) Qarz oluvchi faoliyatining yoki aktivlarining barchasi yoki katta qismi uchinchi shaxs tomonidan boshqarilishi mumkin bo'lgan shartnomalar tuzish;
- g) faoliyatini qayta tashkil etish yoki tugatishni amalga oshirish;
- d) o'z kapitalini kamaytirish yoki o'z aksiyalarini sotib olish.
- e) Karz oluvchi Bankning oldindan yozma ruxsatisiz o'z ta'sis hujjatlariga, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, ta'sischilar/aktsiyadorlar tarkibi, va ularning egalik ulushlari taqsimoti o'zgarishi kabi muhim o'zgartirishlar kiritish va shunga o'xshash har qanday o'zgartirishlarga yo'l qo'yish.
- i) dividendlar to'lash yoki foydani har qanday shaklda taqsimlash;
- k) affillangan shaxslar bilan bitimlarni bozorga xos bo'lmagan shartlarda tuzish;
- l) o'z mol-mulkini tekinga berish yoxud o'z aktivlarini muqobil ekvivalent olmasdan boshqa shaxsga berish;
- m) debitor qarzdand yoki uchinchi shaxslarga bo'lgan talablardan voz kechishga;
- n) yuridik shaklidan qat'i nazar, Qarz oluvchining sof aktivlarini kamayishga, kapitalini pasayishiga, uning moliyaviy holatini yomonlashishiga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday boshqa harakatlarni sodir etish.

Qarz oluvchining ushbu band qoidalarini buzishi shartnomaning jiddiy buzilishi hisoblanadi va Bankka kreditni muddatidan oldin qaytarishni talab qilish huquqini beradi.

V. TA'MINOT

5.1. Kredit bo'yicha ta'minot sifatida:

5.1.1. _____

5.1.2. _____ qabul qilinadi.

5.2. Bank bilan kelishilgan holda Bankni qanoatlantiradigan boshqa shakldagi likvidli ta'minot qabul qilinishi mumkin.

5.3. Ta'minotni rasmiylashtirish va ro'yxatdan o'tkazish, shu jumladan garov ob'ektini sug'urtalash (garov kredit bo'yicha ta'minot sifatida berilgan taqdirda) naqd kredit mablag'lari berilgunga qadar tugallanishi kerak.

5.4. Ta'minotning umumiy qiymati kredit qoldig'ining 125% (bankka aloqador shaxslar uchun 130%) dan past bo'lishi mumkin emas.

Agar:

- Qarz oluvchi kredit ajratilganidan so'ng Bankka aloqador shaxsga aylansa va
- Kredit bo'yicha mavjud ta'minot kredit qoldig'ining 130 foizidan kamini tashkil etsa,

Qarz oluvchi Bankni qanoatlantiradigan qo'shimcha ta'minotni taqdim etishi yoki kreditning ta'minlanmagan summasini muddatidan oldin to'lashi lozim. Bu qo'shimcha ta'minot kredit bo'yicha boshqa (mavjud) ta'minot bilan birgalikda kredit qoldig'ining kamida 130 foizini ta'minlashi kerak.

Qo'shimcha ta'minot Qarz oluvchi tomonidan Bank tegishli talabni qo'ygan kundan boshlab 30 (o'ttiz) bank ish kuni ichida taqdim etilishi shart.

5.5. Qarz oluvchi ta'minot yomonlashgan va uning qiymati kamaygan taqdirda yoki taqdim etilgan ta'minot Bank talablariga javob bermay qolgan boshqa holatlarda Bankning talabnomasi qo'yilgan vaqtdan boshlab 30 (o'ttiz) bank kuni ichida Bank talablariga muvofiq bo'lgan ta'minotni taqdim etish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

5.6. Garov ta'minotini almashtirish bunga Bankning roziligi mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchi tashabbusi bilan garov ta'minoti almashtirilgan taqdirda, Qarz oluvchi garov ta'minotini almashtirish uchun to'lanadigan vositachilik haqini garov ta'minotini almashtirish paytida amalda bo'lgan miqdorda Bankka to'lash majburiyatini oladi.

VI. BANK HUQUQLARI

6.1. Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomaning shartlari buzilganda Bank asosiy qarz, hisoblangan foizlar va kredit bo'yicha boshqa to'lovlar bo'yicha butun qarzdorlikni Qarz oluvchining istalgan hisobvaraqlaridan aktseptsiz tartibda hisobdan chiqarish huquqiga ega.

6.2. Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma shartlari buzilgan, noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilgan holatlar aniqlangan taqdirda, Bank qoidabuzarliklar bartaraf etilgungacha kredit berishni rad etish yoki Qarz oluvchi aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etgungacha moliyalashtirishni to'xtatib turish huquqiga ega.

6.3. Ushbu Shartnomaga binoan amalda saqlanishi lozim bo'lgan istalgan sug'urta shartnomasi Qarz oluvchi tomonidan sug'urta mukofotlari to'lanmaganligi oqibatida istalgan vaqtda va istalgan sababga ko'ra amal kuchiga ega bo'lmasligi ehtimolini nazarda tutgan holda, Bank bundan keyin yoki bu holat davom etayotgan istalgan vaqtda bunday mukofotni Qarz oluvchi o'rniga o'z nomidan to'lash va ehtimoliy zararni Bank tomonidan maqsadga muvofiq yoki zarur deb topilgan usulda imkon qadar kamaytirish maqsadida barcha shu kabi choralarni ko'rish huquqiga ega bo'ladi (lekin bunday

majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi). Bunda Bank to'langan summani Qarz oluvchidan so'zsiz tartibda undirish huquqiga ega.

6.4. Bank ushbu Shartnomani tuzish, Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ta'minot va shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishi yuzasidan ma'lumotlarni Kredit axboroti milliy institutiga, «Kredit–axborot tahliliy markazi» Kredit byurosi» MChJga va boshqa kredit byuolariga, DUK “Garov reestri”ga taqdim etish va ulardan olish huquqiga ega.

6.5. Ushbu Shartnomaning 4 va 5 Bo'limida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarish muddatlari Qarz oluvchi tomonidan buzilgan taqdirda, Bank Qarz oluvchidan belgilangan bajarish muddatidan keyingi kundan boshlab majburiyat amalda bajarilgan kungacha har bir kechiktirilgan kun uchun kredit bo'yicha qarz qoldig'ining 0,01 foizi miqdorida penya undirish huquqiga ega.

6.6. Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar buzilgan taqdirda (ushbu Shartnomaning boshqa qoidalari bilan javobgarligi aniq tartibga solingan majburiyatlar bundan mustasno), Bank har bir qoidabuzarlik holati uchun Qarz oluvchidan qarz qoldig'ining 0,1% miqdorida jarima undirishga haqli.

VII. QARZ OLUVCHINING HUQUQLARI

7.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha ushbu Shartnomada qayd etilgan shartlarda va summalarda mablag' olish.

7.2. Kredit bo'yicha asosiy qarz summasini, muddatidan oldin qaytarish sanasi holatiga kreditdan amalda foydalanish davri uchun hisoblanib to'lanmagan foizlarni hamda kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni hisobga olgan holda muddatidan ilgari qaytarish.

7.3. Bank bilan kelishilgan holda kredit bo'yicha ta'minot tarkibidan mol-mulkni chiqarish.

7.4. Ushbu shartnoma tuzilgandan so'ng va Qarz oluvchi ushbu shartnoma bo'yicha kredit olishiga qadar kredit olishdan bepul asosda voz kechish.

7.5. Kreditni muddatidan oldin, buning uchun hech qanday jarimalarni to'lamasdan, istalgan vaqtda to'liq qaytarish.

7.6. Bankning aybi bilan kredit mablag'larini berish majburiyati bajarilmaganligi yoki o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun Bankdan 1 BHM miqdorida jarima undirish.

VIII. KREDITNI MUDDATIDAN OLDIN UNDIRUVI

8.1. Bank Qarz oluvchidan kredit summasini va boshqa tegishli to'lovlarni muddatidan oldin darhol to'lab berilishini talab qilish hamda muddatidan oldin undirish to'g'risidagi tegishli da'vo-talablari bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lishiga quyidagi holatlardan istalgani sodir bo'lgani va davom etayotgani asos bo'ladi, jumladan:

a) Qarz oluvchi kredit bo'yicha o'z qarzlarni qaytarish qobiliyatini yo'qotishi yoki ularni to'lash muddatida qaytarmayotganligi va bu holat to'lash muddati buzilgan vaqtdan boshlab 60 kalendar kuni davom etishi;

- b) Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha va/yoki istalgan boshqa kelishuv bo'yicha, shu jumladan, garov, kafillik shartnomasi va boshqa bitimlar (shu jumladan, to'lov jadvali bo'yicha to'lovni amalga oshirish) bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganligi va bu holat Bank Qarz oluvchiga bajarilmayotganlik holati haqida habar bergandan so'ng 5 (besh) ish kuni davom etishi;
- v) Qarz oluvchining (Kredit bo'yicha bo'lgan qarzдорlikdan tashqari) qandaydir qarzдорligi yuzasidan yoki Qarz oluvchining belgilangan muddatda to'lanmagan qandaydir qarzдорligi bo'lgan shartnomaga asosan belgilangan majburiyatlar bajarilmayotganligi;
- g) Kredit bo'yicha ta'minot yoki ta'minotning biron bir qismi ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarga nisbatan o'zining yuridik kuchini yo'qotishi;
- d) Istalgan davlat organlari Qarz oluvchiga tegishli mol-mulkning yoki boshqa aktivlarning barchasini yoki istalgan qismini, yoxud uning ustav kapitalini musodara qilayotganligi, milliy lashtirayotganligi yoki boshqa usullarda ekspropriatsiya qilayotganligi, yoki Qarz oluvchining mol-mulkini yoki boshqa aktivlarini, yoki uning biznesini, operatsiyalari yoki ustav kapitalini saqlash yoki nazorat qilish uchun qabul qilayotganligi, yoxud Qarz oluvchini tarqatib yuborish yoki faoliyatini tugatish uchun istalgan harakatni, yoki Qarz oluvchi yoxud uning xodimlari biznes yoki operatsiyalarning barchasini yoki ahamiyatli qismini davom ettirishiga to'sqinlik qiladigan istalgan harakatni amalga oshirganligi;
- e) Qarz oluvchi yoki biron bir tarzda Qarz oluvchiga aloqador bo'lgan uchinchi shaxslarga nisbatan da'votablari yoki ish yurituvchi qo'zg'atilishi va ularning natijasida Qarz oluvchining istalgan mol-mulki uning kreditorlari o'rtasida taqsimlanishi ehtimoli mavjudligi;
- yo) 4 va 5 bo'limlarda ko'rsatilgan majburiyatlar ushbu bo'limlarda ko'rsatilgan muddatlarda bajarilmaganligi;
- j) Qarz oluvchining mol-mulkiga undiruv qaratilishi yoki band solinishi;
- z) Bankning fikriga ko'ra, Qarz oluvchining bank oldidagi to'lov majburiyatlarini bajarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan voqealar sodir bo'lganligi;
- i) Bankni oldindan yozma ravishda xabardor qilmasdan, Qarz oluvchining kapitalini kamaytirish, qayta tashkil etish, qo'shilish, mulkni topshirish, bo'linish yoki tugatish amalga oshirilganda;
- k) Bank va/yoki auditorlik kompaniyalarining fikriga ko'ra, Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashganda;
- l) Qarz oluvchining ushbu shartnoma bo'yicha har qanday majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga ta'sir qiluvchi qonunchilik yoki tartibga soluvchi qoidalar kiritilganda;
- m) Qarz oluvchining ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarini to'g'ri bajarishi uchun zarur bo'lgan har qanday ruhsatnomalar, litsenziyalar, ro'yxatga olishlar, sertifikatlar va boshqalar o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa;
- n) Qarz oluvchi o'z to'lov majburiyatlarini bajara olmagan yoki unga nisbatan bankrotlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilgan yoki Qarz oluvchi bankrot deb e'lon qilinganida;

- o) Qarz oluvchi ushbu shartnoma bo'yicha boshqa har qanday majburiyatlarni bajarmaganda;
- p) Har qanday vakolatli organ Qarz oluvchini tugatish yoki uning faoliyatini to'xtatib turish yoki shunga o'xshash Qarz oluvchiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa harakatlarni amalga oshirgan bo'lsa.
- r) Ushbu shartnomaning 13.1-bandida ko'rsatilgan Qarz oluvchining tasdiqlari yolg'on bo'lgan hollarda.

IX. QO'LLANADIGAN QONUN HUJJATLARI VA NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

9.1. Ushbu Shartnoma qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlar bilangina tartibga solinadi.

9.2. Mazkur Shartnoma yoki u munosabati bilan kelib chiqishi mumkin bo'lgan barcha nizolarni tomonlar muzokaralar yo'li bilan hal qilishga harakat qiladilar. Agar tomonlar kelishuvga erishmasa, ular o'rtasidagi nizo:

- yo Bank joylashgan joydagi sudda (ushbu Shartnomaning "Tomonlarning yuridik manzili" bo'limida ko'rsatilgan manzil bo'yicha);
- yoki O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari huzuridagi hakamlik sudida;
- yoki O'zbekiston Hakamlik sudlari assotsiatsiyasi va uning hududiy filiallari huzuridagi hakamlik sudida hal etiladi.

9.3. Ushbu Shartnomaga bog'liq yuzaga keladigan istalgan sud jarayonida, ushbu shartnomaga muvofiq Bankga tegishli bo'lgan istalgan summa bo'yicha Bank hujjatlari bunday summa Bankga tegishli ekanligi va unga to'lanishi lozimligining dastlabki dalil-isboti hisoblanishi kerak.

9.4. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, Qarz oluvchi notariusning ijro xati asosida Bank tomonidan kredit bo'yicha qarzdorlikni undirish imkoniyatiga rozi bo'ladi. Ushbu shartnoma va u bo'yicha majburiyatlar tomonlar tomonidan notarius ijro xatini yozish uchun yetarli asos sifatida e'tirof etiladi.

X. FORS-MAJOR HOLATLARI (FMH)

10.1. Tomonlardan hech biri ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun, bunday holat Shartnomani tuzishdan so'ng yuzaga kelgan va oqilona choralar yordamida oldini olish imkonsiz bo'lgan engib bo'lmaydigan kuch holati (suv toshqini, yong'in, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar) oqibatida yuz bergan bo'lsa, javobgar hisoblanmaydi.

10.2. FMH ta'siriga tushgan tomon darhol boshqa tomonga bu holat haqida xabardor qilishi shart. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlari, har bir holatda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan engib bo'lmaydigan kuch holatlari (FMH) ning amal qilish vaqtiga mutanosib ravishda ko'chiriladi.

XI. ALOHIDA SHARTLAR

11.1. _____.

XII. BOSHAQA SHARTLAR

12.1. Tomonlar ushbu Shartnoma asosida mazkur Shartnomaning qat'iy maxfiylikini ta'minlash va o'zaro kelishmasdan uni uchinchi shaxsga oshkor qilmaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladilar, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

12.2. Ushbu kredit Shartnomasi imzolangan vaqtdan boshlab to Qarz oluvchi tomonidan Bank oldidagi barcha majburiyatlar to'liq bajarilishiga qadar amal qiladi.

12.3. Ushbu Shartnoma tomonlarning har birida bittadan saqlanadigan jami 2 nusxada tuzilgan bo'lib, ularning har biri yuridik kuchga ega.

12.4. Shartnoma shartlarini o'zgartirish tomonlarning qo'shimcha yozma kelishuvi bo'yicha amalga oshiriladi va bu kelishuv ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

12.5. Ushbu bilan Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha uni tuzish shartlari, taqdim etilgan ta'minot va Qarz oluvchi tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilishi xususidagi ma'lumotlar Kredit axboroti milliy institutiga, «Kredit-axborot tahliliy markazi» Kredit byurosi» MChJga, va boshqa kredit byuolariga taqdim etilishi va olinishiga o'z roziligi beradi hamda olinayotgan kredit bo'yicha ta'minot sifatida taqdim etilayotgan mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotlar O'zR «Garov reestri to'g'risida»gi Qonunining 10-moddasiga asosan reestrda qayd etilishiga o'z roziligini beradi.

12.6. Nizolar yuzag'a kelgan taqdirda Qarz oluvchining shaxsiy hisobvaraqlaridagi bank yozuvlari Qarz oluvchining majburiyatlari amalga oshirilishi va ular miqdorining ustuvor dalil-isboti hisoblanadi.

XIII. QARZ OLUVCHINING TASDIQLARI

13.1. Ushbu bilan Qarz oluvchi quyidagilarni tasdiqlaydi:

a) Qarz oluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilangan tartibda tashkil etilgan va ro'yxatdan o'tgan, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun barcha zarur maxsus ruxsatnomalarga (litsenziyalarga) ega bo'lgan yuridik shaxsdir;

b) Qarz oluvchi o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka va boshqa aktivlariga egalik huquqiga yoki boshqa ashyoviy huquqqa ega;

v) Mazkur shartnomani imzolagan shaxslar Qarz oluvchining ta'sis hujjatlariga va boshqa hujjatlariga muvofiq ushbu shartnomani imzolashga tegishli vakolatga ega bo'lib, amaldagi qonunchilikka muvofiq shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar Qarz oluvchi uchun haqiqiy va qo'llanilishi mumkindir;

g) ushbu shartnomaning imzolanishi, uning bajarilishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Qarz oluvchining normativ hujjatlariga, shuningdek, Qarz oluvchi ishtirok etadigan uchinchi shaxslar bilan tuzilgan boshqa shartnomalarga zid emas;

d) Qarz oluvchining mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlariga qonuniy tus berish uchun zarur bo'lgan barcha kerakli ruxsatnomalar, litsenziyalar, vakolatlar, istisnolar, ro'yxatga olishlar, notarial tasdiqlashlar va boshqa harakatlar olingan va kuchga kirgan;

e) Qarz oluvchiga nisbatan ma'muriy yoki sud harakatlari qo'zg'atilmagan va Qarz oluvchining faoliyatiga yoki uning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan uchinchi shaxslar oldidagi bajarilmagan majburiyatlari mavjud emas.

XIV. XABAR BERISH, TAYINLANGAN VAKILLAR VA O'ZGARTIRISHLAR

14.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha talab qilinadigan yoki ruxsat etilgan barcha xabarnomalar yoki so'rovnomalar yozma shaklda taqdim etiladi. Bunday xabarnoma yoki so'rovnoma yo'llanayotgan tomonga shaxsan topshirilganda, pochta, telegraf, teleks yoki faksimile aloqasi bo'yicha uning quyida ko'rsatilgan manziliga yoki tomon so'rovnoma yoki xabarnoma taqdim etayotgan yoki yuborayotgan tomonga yozma shaklda ko'rsatgan istalgan boshqa manzilga etkazilganda tegishli topshirilgan yoki amalga oshirilgan hisoblanadi.

ShULARNING DALILI SIFATIDA VA YuQORIDAGILARNI TASDIQLASH MAQSADIDA, ushbu shartnomaning tomonlari o'zlarining tegishli vakolatlangan vakillari orqali harakat qilgan holda, o'zbek tilida, har biri asl hisoblanadigan jami ikki (2) nusxadagi ushbu shartnomaga _____ shahrida, yuqorida ko'rsatilgan yil va kunda imzo chekishdi.

XV. TOMONLARNING YuRIDIK MANZILI

«Bank»:

«InfinBank» AJ

«Qarz oluvchi»:
